

## SOG‘LIQNI SAQLASH XIZMATLARI SOHASI BARQARORLIGINING HUDUDIY VA DINAMIK TAHLILI

**Ko‘charov Xurshid Xurram o‘g‘li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: [xurshid.k@dtpi.uz](mailto:xurshid.k@dtpi.uz)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada xizmatlar sohasining, jumladan sog‘liqni saqlash xizmatlarining hududlar kesimidagi rivojlanish dinamikasi va barqarorlik holati tahlil qilingan. Tadqiqot bozor xizmatlarining oylik o‘shish sur‘atlari hamda sog‘liqni saqlash xizmatlarining yillik o‘shish ko‘rsatkichlari asosida amalga oshirilgan. Rasmiy statistik ma’lumotlarga tayangan holda xizmatlar sohasining qisqa va uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalari baholangan. Tahlil natijalariga ko‘ra, xizmatlar sohasining iqtisodiy tebranishlarga nisbatan yuqori darajada moslashuvchanligi aniqlangan, sog‘liqni saqlash xizmatlarining esa hududlar kesimida barqaror o‘shish tendensiyasini saqlab kelayotgani qayd etilgan. Olingan xulosalar xizmatlar sohasining, xususan sog‘liqni saqlash xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini asoslash hamda hududiy rivojlanish siyosatini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi bilan izohlangan.

**Kalit so‘zlar:** xizmatlar sohasi, sog‘liqni saqlash xizmatlari, hududiy rivojlanish, barqarorlik, o‘shish dinamikasi, statistik tahlil.

### Аннотация

В данной статье проанализированы динамика развития и состояние устойчивости сферы услуг, в том числе услуг здравоохранения, в региональном разрезе. Исследование проведено на основе показателей ежемесячных темпов роста рыночных услуг и годовых темпов роста услуг в сфере здравоохранения. На основе официальных статистических данных были оценены краткосрочные и долгосрочные тенденции развития сферы услуг. По результатам анализа установлено, что сфера услуг характеризуется высокой степенью адаптивности к экономическим колебаниям, при этом в сфере здравоохранения в региональном разрезе сохраняется устойчивая тенденция роста. Полученные выводы обоснованы с точки зрения социально-экономической значимости сферы услуг, в частности услуг здравоохранения, и могут быть использованы при совершенствовании региональной политики развития.

**Ключевые слова:** сфера услуг, услуги здравоохранения, региональное развитие, устойчивость, динамика роста, статистический анализ.

### Abstract

In this article, the development dynamics and sustainability of the service sector, including healthcare services, across regions are analyzed. The study is conducted based on monthly growth rates of market services and annual growth indicators of healthcare services. Using official statistical data, short-term and long-term development trends of the service sector are assessed. The results indicate that the

service sector is characterized by a high level of adaptability to economic fluctuations, while a stable growth trend in healthcare services is maintained across regions. The obtained findings substantiate the socio-economic significance of the service sector, particularly healthcare services, and may be applied in improving regional development policies.

**Keywords:** service sector, healthcare services, regional development, sustainability, growth dynamics, statistical analysis.

## KIRISH

Xizmatlar sohasi iqtisodiy tizimda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Ko'plab mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonida ishlab chiqarish sektoridan xizmatlar sektoriga bosqichma-bosqich o'tish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Xizmatlar sohasi iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, ijtimoiy barqarorlik va aholining hayot sifatini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining rivojlanish darajasini tahlil qilish hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni aniqlash hamda ularni qisqartirish imkonini beradi. Hududlarda xizmatlar infratuzilmasining rivojlanishi aholi bandligi, tadbirkorlik faolligi va ijtimoiy farovonlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli xizmatlar sohasining hududiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi yetakchi tarmoqlardan biri sifatida shakllanmoqda. Jahon tajribasi xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortishi bandlik darajasining oshishi va aholi farovonligining yaxshilanishi bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu jihatdan xizmatlar sohasining rivojlanish jarayonlarini, ayniqsa hududlar kesimida tahlil qilish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasi izchil rivojlanib, uning umumiy iqtisodiy o'sishdagi hissasi yildan-yilga ortib bormoqda. Bozor xizmatlari ichki talab dinamikasini aks ettiradi va aholi daromadlari hamda tadbirkorlik muhiti bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Sog'liqni saqlash xizmatlari esa ijtimoiy yo'naltirilganligi, aholining doimiy ehtiyojlariga tayanishi va iqtisodiy tebranishlarga nisbatan nisbatan barqarorligi bilan ajralib turadi.

Mazkur maqola bozor xizmatlarining oylik o'sish sur'atlari hamda sog'liqni saqlash xizmatlarining yillik o'sish ko'rsatkichlari asosida xizmatlar sohasining hududiy rivojlanish dinamikasi va barqarorlik holatini tahlil qiladi. Tadqiqot xizmatlar sohasining qisqa va uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda ularning o'zaro uyg'unligini baholashga qaratilgan.

Xizmat tushunchasi iqtisodiy nuqtai nazardan inson ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, foydalanish qiymatini yaratadigan va faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan mehnat natijalarini ifodalaydi. Shu bois xizmat ko'rsatish jarayoni jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat shakli sifatida qaraldi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasining iqtisodiy o‘shidagi o‘rni bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ushbu sektorning makroiqtisodiy barqarorlikka qo‘shgan hissasi keng yoritilgan. Ayrim tadqiqotlarda xizmatlar sohasi iqtisodiy sikllar ta‘sirini yumshatuvchi amortizator vazifasini bajarishi qayd etiladi. Bu holat, ayniqsa, ijtimoiy xizmatlar, jumladan, sog‘liqni saqlash xizmatlari uchun xosdir.

Xizmatlar sohasi barqarorligi masalasi iqtisodiy nazariya va empirik tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida shakllangan. Ushbu masalaga oid dastlabki nazariy qarashlar Simon Kuznets, Colin Clark va Jean Fourastie asarlarida yoritilgan bo‘lib, ular iqtisodiyotning sektorlar bo‘yicha evolyutsiyasi jarayonida xizmatlar sohasining barqaror iqtisodiy o‘shidagi rolini asoslab bergan. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanishning yuqori bosqichlarida xizmatlar sohasi yetakchi tarmoqqa aylanadi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmatlar sohasi barqarorligi iqtisodiy o‘shish va makroiqtisodiy barqarorlik bilan bog‘liq holda empirik jihatdan keng o‘rganilmoqda. Mariana Mazzucato xizmatlar sohasida davlatning institutsional roli va jamoat qiymatini yaratish mexanizmlarini tahlil qilib, barqaror rivojlanish davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Bozor xizmatlarining iqtisodiy diversifikatsiya va barqaror o‘shidagi o‘rni Dani Rodrik tadqiqotlarida empirik modellar asosida baholanib, rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar sektori sanoat bilan bir qatorda barqaror o‘shish manbai ekanligi asoslanadi. Sog‘liqni saqlash xizmatlari barqarorligini baholashda Peter C. Smith sog‘liqni saqlash tizimlarining moliyaviy va institutsional barqarorligini samaradorlik ko‘rsatkichlari orqali o‘lchaydi. Aholi salomatligi va iqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi sabab–oqibat bog‘liqligi David Stuckler tomonidan sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari misolida empirik tarzda isbotlangan. O‘zbekiston sharoitida xizmatlar sohasi, jumladan, sog‘liqni saqlash xizmatlarining barqaror rivojlanishi Dilorom Tashpulatova tadqiqotlarida investitsiyalar va davlat siyosati bilan bog‘liq holda tahlil qilinib, milliy iqtisodiyot uchun amaliy xulosalar chiqarilgan.

Xorijiy ilmiy manbalarda sog‘liqni saqlash xizmatlari aholining doimiy ehtiyojlariga asoslangan bo‘lib, iqtisodiy faollik pasaygan davrlarda ham barqaror talabni saqlab qolishi ta‘kidlanadi. Shu sababli sog‘liqni saqlash xizmatlari iqtisodiyotning eng kam tebranuvchi segmentlaridan biri sifatida baholanadi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda xizmatlar sohasining hududiy rivojlanishi infratuzilma rivoji, investitsiya oqimlari va xizmatlar sifatining oshishi bilan chambarchas bog‘liqligi ta‘kidlanadi. Ushbu ilmiy qarashlar xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi rivojlanish jarayonlarini chuqurroq o‘rganish hamda ularning barqarorlik jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘shishning muhim drayveri sifatida baholanadi. Tadqiqotchilar ushbu sohani yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi, bandlikni kengaytiruvchi va iqtisodiy sikllarga nisbatan kamroq ta‘sirchan sektor sifatida tavsiflaydilar. Xizmatlar sohasi rivojlanishiga aholi daromadlari, urbanizatsiya

darajasi, infratuzilma rivoji va institutsional muhit kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatishi ilmiy ishlarda keng yoritilgan.

Sog'liqni saqlash xizmatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ushbu sohaning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Ilmiy manbalarda sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan talab nisbatan barqaror bo'lib, iqtisodiy inqiroz sharoitlarida ham keskin qisqarmasligi asoslab berilgan. Shu bois mazkur xizmat turi iqtisodiyotning eng barqaror segmentlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Hududiy rivojlanish masalalariga oid ilmiy ishlarda xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi rivojlanishidagi tafovutlar infratuzilma rivoji, investitsiya faolligi va xizmatlar sifati bilan izohlanadi. Ushbu ilmiy qarashlar mazkur tadqiqotning nazariy asosini shakllantirdi.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqot metodologiyasi ikkilamchi statistik ma'lumotlarga asoslangan empirik yondashuv asosida ishlab chiqildi. Tadqiqotda bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi oylik o'sish sur'atlari hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning yillik o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlaridan foydalanildi. Ushbu ma'lumotlar xizmatlar sohasining qisqa va uzoq muddatli rivojlanish jarayonlarini kompleks baholash imkonini berdi.

Mazkur tadqiqot empirik tadqiqotlar doirasiga mansub bo'lib, unda ikkilamchi statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanish tadqiqotning ishonchliligini oshiradi, chunki mazkur ma'lumotlar rasmiy statistik organlar tomonidan shakllantirilgan va tekshirilgan hisoblanadi.


Tadqiqot metodologiyasida vaqt qatori (time series) tahlili muhim o'rin egallaydi. Ushbu usul orqali xizmatlar sohasidagi o'sish sur'atlarining vaqt bo'yicha o'zgarishi aniqlanadi. Bundan tashqari, hududlar kesimida solishtirma tahlil qo'llanilib, xizmatlar rivojlanishidagi hududiy tafovutlar baholandi.

Tahlil jarayonida dinamik tahlil, solishtirma tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Dinamik tahlil yordamida vaqt bo'yicha o'zgarishlar aniqlanib, solishtirma tahlil orqali hududlar kesimidagi farqlar baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi rasmiy statistika manbalariga tayanish orqali, aniqligi esa turli davrlar kesimidagi ko'rsatkichlarning o'zaro mosligini tekshirish orqali ta'minlandi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**


Bozor xizmatlarining oylik o'sish sur'atlari tahlili hududlarning aksariyatida xizmatlar hajmi oyma-oy ijobiy o'sish tendensiyasini namoyon etayotganini ko'rsatadi. Mazkur holat xizmatlar bozorida ichki talabning barqarorligini va iqtisodiy faollikning uzluksizligini tasdiqlaydi (1-rasm).

Hududlar o'rtasida o'sish sur'atlarida ayrim tafovutlar mavjud bo'lsa-da, umumiy tendensiya ijobiylikicha qolmoqda(1-rasm).



**1-rasm. Bozor xizmatlari o'sishi<sup>1</sup>**

Olib borilgan empirik tahlil natijalari bozor xizmatlari hajmining oylik o'sish sur'atlari hududlar kesimida asosan ijobiy tendensiyani namoyon etayotganini ko'rsatdi. Bu holat xizmatlar bozorida ichki talabning uzluksizligini va tadbirkorlik faolligining barqarorligini ifodalaydi (2-rasm).



**2-rasm. Sog'liqni saqlash xizmatlari o'sishi<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

Sogʻliqni saqlash xizmatlarining yillik oʻsish koʻrsatkichlari esa xizmatlar sohasining uzoq muddatli barqarorligini yanada yaqqol namoyon etadi. Tadqiqot davrida mazkur xizmat turi izchil oʻsish surʼatlarini saqlab qolgan. Hatto ayrim yillarda umumiy iqtisodiy faollik pasaygan sharoitlarda ham sogʻliqni saqlash xizmatlariga boʻlgan talab keskin kamaymagan.

Qisqa muddatli (oylik) va uzoq muddatli (yillik) koʻrsatkichlarning uygʻunligi xizmatlar sohasining barqaror rivojlanayotganini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Ushbu holat xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Empirik natijalar shuni koʻrsatadiki, qisqa muddatli tebranishlar mavjud boʻlishiga qaramasdan, xizmatlar sohasining umumiy rivojlanish trayektoriyasi barqaror va ijobiy yoʻnalishga ega. Bu holat xizmatlar sohasining iqtisodiy tizimdagi strategik rolini empirik jihatdan asoslab beradi (1-jadval).

**1-jadval.**

**2025-yilda Oʻzbekiston Respublikasi va hududlar kesimida isteʼmol narxlari indeksi (foizlarda)<sup>1</sup>**

Klassifikator	2025-M01	2025-M02	2025-M03	2025-M04	2025-M05	2025-M06	2025-M07	2025-M08	2025-M09	2025-M10	2025-M11	2025-M12
Oʻzbekiston Respublikasi	111,4	112,2	112,6	112,6	113,3	113,3	113,5	113,7	114	114,4	114,6	114,7
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	106,9	107,4	107,3	108,7	110	111,4	110,8	111,9	111,3	111,4	113,1	113,7
Andijon viloyati	111,7	112,3	111,4	112,2	113,1	113,7	114,3	115,4	115,4	115,6	115,6	114,7
Buxoro viloyati	110,4	108,5	108,9	109	109,5	112,4	111,8	111,9	113,1	112,9	113,6	114
Jizzax viloyati	110,5	109,2	109,3	108,9	112	114	113,6	113,8	114,5	114,7	114,3	114,7
Qashqadaryo viloyati	111,8	111,4	111,2	111,5	112,1	113	112,8	112,8	112,8	112,7	113,1	113,6
Navoiy viloyati	110,1	111,7	113,1	113	113,1	113,5	113,7	113,6	113,6	113,4	113,5	113,7
Namangan viloyati	110,7	109	109,2	109	108,9	112	111,5	111,9	112,4	112,7	113,6	115,4
Samarqand viloyati	116	113,6	114	112,8	112,6	112,3	112,4	112,7	114,1	114,1	114,9	115,9
Surxondaryo viloyati	110,7	111,4	110,5	110,5	111,9	112,7	113,1	113,3	113,8	114,1	114,6	114,1
Sirdaryo viloyati	110,3	111	108,8	109,9	113,7	114,1	113,9	113,7	113,7	113,8	112,7	113,4
Toshkent viloyati	109,3	110,7	110,7	111,1	112,7	114,1	114	114,2	114,8	114,7	114,4	115,2
Fargʻona viloyati	112,4	111,2	111	111,2	111,5	112,6	112,3	112,8	113,3	113,7	113,9	114,4
Xorazm viloyati	110,8	109,3	110,7	111,3	112,5	113,3	113,1	113,2	113,5	113,9	114,3	115,2
Toshkent shahri	114	114,8	116,9	117,2	117	115,2	116,2	116	116,1	116,6	117,3	117,7

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan empirik tahlil natijalari xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng barqaror rivojlanayotgan segmentlaridan biri ekanini ko‘rsatdi. Bozor xizmatlarining oylik o‘shish sur‘atlari ichki talabning uzluksizligini tasdiqlagan bo‘lsa, sog‘liqni saqlash xizmatlarining yillik barqarorligi ushbu sohaning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan strategik ahamiyatga ega ekanini isbotladi.

Xulosa qilib aytganda, xizmatlar sohasining hududiy rivojlanishi qisqa va uzoq muddatli statistik ko‘rsatkichlar uyg‘unligi asosida barqaror tusga ega. Ushbu holat xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olib borilgan empirik tahlil xizmatlar sohasi rivojlanishining barqarorligi tasodifiy holat emasligini, balki ichki talab, ijtimoiy ehtiyojlar va institutsional omillar bilan mustahkam bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Bozor xizmatlari va sog‘liqni saqlash xizmatlari misolida olingan natijalar xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi muhim tayanch nuqtalaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

Taklif sifatida hududlarda xizmatlar, ayniqsa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish, xizmatlar infratuzilmasini takomillashtirish hamda ushbu sohada investitsiya faolligini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, kelgusida xizmatlar sohasining hududiy rivojlanishini yanada chuqurroq baholash uchun kengroq empirik tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Xizmatlar sohasi statistik ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2010–2025.

2. Rodrik, D. Industrial Policy and Economic Transformation. – Princeton University Press, 2019.

3. Smith, P. C. Measuring Health System Performance. – World Health Organization, 2018.

4. Stuckler, D., Reeves, A. The Political Economy of Health // Oxford University Press, 2020.

5. Ko‘charov X. Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalarining o‘rni: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15683338//JournalofInternationalsciencenetworks>. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 429-432.

6. Ko‘charov X. Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari: [https://doi.org/10.5281/zenodo.15648021//Science technology&Digital finance](https://doi.org/10.5281/zenodo.15648021//Science%20technology&Digital%20finance). – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 59-63.

7. Ko‘charov, X., Ko‘charov, E. “Digital Transformation Processes in the Public and Private Sectors and Artificial Intelligence Technologies.” <https://doi.org/10.5281/zenodo.14197678> // Journal of International Science Networks, 2024, Vol. 1, No. 2, pp. 70–74.

8. Official Statistics Portal of Uzbekistan: <https://stat.uz>

9. Legal Information Portal of Uzbekistan: <https://lex.uz>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, yanvar, 1-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**